

UDK: 9'433'91'910,2

**AZONALLIK VA BALANDLIK MINTAQALARI: TABIIY GEOGRAFIK
QONUNIYATLAR VA HUDUDIIY XUSUSIYATLAR**

Shodiyev Hamza Ro'ziqulovich

Navoiy davlat universiteti, Geografiya kafedrası professori.
pedagogika fanlari doktori (DSc).

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-7050-4702>

e-mail: shodiye5052@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18654547>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiatning hududiy farqlanish qonuniyatlari, xususan zonallik, azonallik va balandlik mintaqalari tushunchalari ilmiy asosda yoritilgan. Azonallikning mohiyati, shakllanish omillari hamda zonallik qonuni bilan o'zaro bog'liqligi izohlangan. Shuningdek, tog'li hududlarga xos bo'lgan balandlik mintaqalari va ularning bosqichma-bosqich almashinuvi tavsiflangan. Maqolada O'rta Osiyo hududi misolida, jumladan Amudaryo va Sirdaryo vodiylari hamda Tyanshan va Pomir tog' tizimlari misolida ushbu qonuniyatlarning amaliy namoyon bo'lishi ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, azonallik va vertikal zonallikning xo'jalik faoliyatidagi ahamiyati hamda global iqlim o'zgarishi sharoitida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tabiiy geografiya, hududiy farqlanish, geografik zonallik, azonallik, balandlik mintaqalari, vertikal zonallik, landshaft, relyef, iqlim, sektorlik, tog' landshaftlari, O'rta Osiyo, Tyanshan, Pomir, Amudaryo, Sirdaryo, global iqlim o'zgarishi.

KIRISH. Yer yuzasidagi tabiat bir xil emas, balki murakkab va xilma-xil tuzilishga ega.

Iqlim, relyef, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi hududdan hududga farq qiladi. Ushbu farqlanishlar tabiiy geografiyada muhim qonuniyatlar orqali tushuntiriladi. Shular jumlasidan zonallik, azonallik va balandlik mintaqalari tushunchalari tabiatning hududiy tuzilishini izohlashda asosiy ilmiy tayanch hisoblanadi. Ayniqsa, azonallik va balandlik mintaqalari zonallik qonunini to'ldirib, tabiiy jarayonlarning yanada murakkabligini ochib beradi. Ushbu maqolada azonallik va balandlik mintaqalari mohiyati, ularning shakllanish omillari, asosiy xususiyatlari hamda O'rta Osiyo misolida namoyon bo'lishi keng va izchil yoritiladi.

Tabiatning hududiy farqlanishi bir nechta qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Geografik zonallik Yer sharining quyosh radiatsiyasi bilan ta'minlanishiga bog'liq bo'lib, ekvatorial zonadan qutbiy zonagacha bo'lgan tabiiy zonalarining ketma-ket joylashishini anglatadi. Biroq Yer yuzida faqat zonallik bilan izohlab bo'lmaydigan ko'plab tabiiy hodisalar mavjud. Ana shunday hodisalar azonallik va balandlik mintaqalari orqali tushuntiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Azonallik tushunchasi va uning mohiyati.

Azonallik — bu geografik kenglik va iqlim zonalariga bog'liq bo'lmagan holda shakllanadigan tabiiy jarayonlar va landshaftlardir. Azonallik hodisalari turli iqlim zonalarida uchrashi mumkin, ammo ularning shakllanishi boshqa omillar bilan belgilanadi.

Azonallik qonuni ham zonallik qonuniga o'xshab umuman geografik qonun bo'lib, geografik komplekslarning barcha komponentlarida o'z aksini topadi. Bir- biridan butunlay mustaqil bo'lgan bu ikki qonun er yuzining barcha qismiga birdekta'sir ko'rsatadi.

Quruqlikdagi geografik kenglik mintaqasi bir xil emasligi, geografik joylashgan o'rni, okean bo'ylarida va kontinental tumanlarda joylashganligini aniqlab beradi. Okean bo'ylarida namlik bosim bo'lsa, kontinental tumanlarda havo quruq bo'lib, okean ta'siri juda past darajada bo'ladi. Shuning asosida mintaqalar okean bo'ylari va kontinental sektorlarga bo'linadi. Bunday sektorlik Evrosiyoning mo'tadil va subtropik mintaqalarida, ayniqsa, kontinentda maksimal darajada juda aniq ko'rinadi. Bu erda nam o'rmon landshafti okean bo'ylaridan materik ichkarisiga borgan sari, quruq dasht landshaftiga, keyin esa kontinental sektorning chalacho'l va cho'l landshaftiga o'zgarib boradi.

Tropik, subekvatorial va ekvatorial mintaqalarda sektorlik aniq ajralmaydi. Passatlar mintaqalarning sharqiy chekkalariga, nam tropik o'rmonlarga yog'in- sochin olib keladi. Ichki va g'arbiy tumanlarda quruq, issiq iqlim, cho'lning g'arbiy qismi okeanga qarab ketadi. Ikki sektordan ekvatorial va subekvatorial mintaq bo'linib chiqadi.

Sektorlar namlik va issiqlik bo'yicha ajraladigan ikki mayda birlikka bo'linadi.

Masalan, birdek bo'lgan yog'in-sochin, yiliga 150-200 mm miqdoridagi yog'in - sochin tundrada botqoqlik, tropiklarda cho'lning paydo bo'lishiga ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Yer yuzidagi zonalarining bo'linishida radiacion balans va yillik yog'in sochin, ya'ni er yuzi havosining namligi yotadi. Quruqlikning radiacion balansi ekvatoridan qutblarga kamayib boradi, u ekvatorida 100 kkal/sm² tashkil qilsa Sankt- Peterburgda 24 kkal/sm² teng. Biroq, quruqlik indeksi geografik zonani to'liq xarakterlamaydi, uning ahamiyati har xil zonada o'ziga xosligi bilan masalan, taygada, mo'tadil mintaqaning keng bargli o'rmonida va ekvatorial o'rmonlarda ajralib turadi. Shuning uchun, olimlar geografik zonallikning biroz universal baholashini qidirmoqda.

Ayrim tabiatning xususiyatlari qutblardan ekvatorga, materiklarga qarab ayniqsa shimoliy yarim sharda davriylik qaytalanib turadi. O'rmonsiz tundradan mo'tadil mintaqaning o'rmon zonasining janubiga, undan keyin dasht va o'rtacha cho'l, subtropikdan, tropikga keyinchalik o'rmonli ekvatorial mintaqaga qarab davrli qaytalanib turadi.

Odatda, tabiat zonolari o'simliklar nomi bilan ataladi, har xil materikda birdek tabiat zonasida o'simlik qoplami birdek o'xshashlikka ega. Biroq, o'simliklarning tarqalishiga faqatgina zonallik, iqlim xususiyatlari ta'sir ko'rsatib qolmay, boshqa omillar, materiklar evolyuciyasi, yotqiziqlarning xususiyati, albatta inson faoliyati ham ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqalarning strukturasi va tabiat zonalarining yig'indisi arktik mintaqalardan ekvatorlarga qarab o'zgarib boradi. Bu soha bo'yicha quyosh radiaciyasi o'sib borishi, namlikning o'zgarishi bilan regional farqlar ham o'zgarib boradi. Tropik kengliklarda landshaftlar har xil xarakterga ega bo'lib, polyar hududlarda uzluksiz namlik, issiqlikning etishmovchiligidan, bu landshaftning xilma- xilligi past bo'ladi. Masalan, tog'larda balandlik mintaqasida zonallik er yuzidan yuqoriga ko'tarilgan sari aniq ko'rinadi. Dastlab tog' o'simliklari bilan hayvonot dunyosi tekislikda shakllangan, tog' balandlashgan sari o'simlik va hayvonot dunyosining rivojlanishi ham o'sib borgan. Umuman, o'simlik va hayvonot dunyosi turlarining har xilligi tog'larda tekislikka qaraganda 2-5 hissa ko'proq.

Vertikal zonallik tiplarida zonalarining almashishi, qaysi geografik zonada joylashganligiga bog'liq bo'lib, tekislikdagi zonalardek almashmaydi. Tog'da zonallik o'ziga xos xossalari bo'yicha shakllanadi, tog' landshafti yuqoriga ko'tarilgan sari kichirayib boradi.

Bundan boshqa janubiy va shimoliy yarim sharning yuqorgi kengliklarida geografik zonallik bir-biridan ajralib turadi. Shimoliy yarim sharning materiklaridagi geografik zonalaridagi eng katta kengliklar janubiy yarim sharda uchramaydi. Shimoliy va Janubiy yarim shardagi quruqlik va okeanlarda har xil guruh o'simlik turlari va hayvonotlar yashaydi. Shimoliy yarim sharning yuqori kengliklarida oq ayiq yashasa, janubiy yarim sharning yuqorgi kengliklarida pingvinlar yashaydi.

Bundan boshqa qutb asimmetriyasining bir qancha belgilari bor bo'lib, barcha zonalar (gorizontal va balandlik) shimolga qarab o'rtacha 10^0 surilgan.

Masalan, janubiy yarim sharning cho'l zonasi ekvatorga (22^0 j.k.), shimoliy yarim sharga qaraganda (37^0 sh.k.) yaqinroq, anticiklonal mintaqa shimoliy yarim sharga (25 va 35^0) qaraganda janubiy yarim sharda ekvatorga 10^0 yaqinroq joylashgan. Ko'pchilik issiq okean oqimlari janubiy yarim sharga emas ekvatorial kenglikdan Shimoliy yarim sharga qarab oqadi, shuning uchun janubiy yarim sharning o'rta va yuqori kengligiga qaraganda, shimoliy yarim sharning o'rta va yuqori kengliklarida iqlim yumshoqroq keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'rta osiyo misolida azonallik va balandlik mintaqalari.

O'rta Osiyoda Amudaryo va Sirdaryo vodiylari azonallikning yaqqol namunasi hisoblanadi. Tyanshan va Pomir tog' tizimlarida esa balandlik mintaqalari aniq va to'liq ifodalangan. Bu hududlarda tabiat komponentlari balandlikka bog'liq holda keskin farqlanadi.

Azonallik va balandlik mintaqalarini hisobga olish:

dehqonchilikni to'g'ri joylashtirish,

- chorvachilikni rivojlantirish,
- suv resurslaridan oqilona foydalanish,
- ekologik muammolarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA. Azonallik va balandlik mintaqalari tabiatning hududiy tuzilishini chuqur tushunish imkonini beradi. Ularni ilmiy asosda o'rganish tabiiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ruzmatov E.Yu., Qo'ziboev, Sh.N. - Bioekologiya (O'simliklar ekologiyasi). Andijon.2020.
2. Gorshina T.K. -Ekologiya rasteniy. M. «Выsshaya shkola». 1979.
3. Kultiasov I.M., Axunov X.M.-O'simliklar ekologiyasi. T. O'qituvchi. 1980.
4. Chernova N.M., Bylova L.M. -Ekologiya. M. «Prosveteniye». 1981
5. Varatov P.- Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent.1991.
6. Raximov T.U. -Autekologiya. Konspekt leksii. Izd. Tash.GU. 1991